

## URGANCH SHAHRI ERGONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

**Murodbek Matnazarov**

*Urganch innovatsion universiteti "O'zbek va xorijiy filologiya"  
kafedrasida dotsent v-b, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*orcid 0009-0000-9625-044X*

*E-mail: matnazarov.murodbek@bk.ru*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada Urganch shahridagi ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, hududda tarqalgan ergonimlarning tiplari va alohida semantik guruhlarga mansub nomlarning shakllanish motivlari kabi masalalar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ergonim, urbanonim, oronim, fitonim, gidronim, antroponim, oykonim, mikrotoponim.*

**Аннотация:** *в данной статье рассматриваются вопросы развития топонимии в узбекском языкознании, особенности номинации эргонимов, виды эргонимов в регионе и мотивы образования названий, принадлежащих к конкретным семантическим группам, взаимосвязь региональных эргонимов.*

**Ключевые слова:** *эргоним, урбаноним, ороним, фитоним, гидроним, антропоним, ойконим, микропоним.*

**Annotation:** *This article discusses the development of toponymy in Uzbek linguistics, the naming features of ergonyms, types of ergonyms in the region and the motives for the formation of names belonging to specific semantic groups, the relationship of regional ergonyms.*

**Keywords:** *ergonym, urbanonym, oronym, phytonym, hydronym, anthroponym, oykonim, microtoponym.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli otlari, toponimlari va ergonimlariga munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan va o'rganiladigan bo'ldi. Natijada o'zbek onomastikasining tadqiq yo'nalishlari yanada kengaydi va nufuzi oshdi. Tilimizning lug'at tarkibida atoqli otlar ma'lum bir o'rin egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalar, otasining ismi, xususiy korxonalar, firma va do'kon nomlari, shuningdek, geografik nomlar, planeta va yulduzlarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi. Bular bir butun holda o'zbek tilining onomastik boyligini tashkil qiladi. Binobarin, onomastika so'zi asli yunoncha bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi hamda u tilshunoslikning atoqli otlarini o'rganuvchi soha nomidir. Atoqli otlar doirasiga kiruvchi nomlar orasida ergonimlar salmoqli o'rinni egallaydi.

Korxonalar, firma va do'kon nomlari turli davrlarning mahsuli bo'lib, til tarixi, tarixiy dialektologiya hamda tarix, etnografiya, geografiya, iqtisodiyot kabi qator fanlar uchun boy faktik material beruvchi manbadir. Bunday nomlarning qachon paydo bo'lganligini, nimaga asosan shunday nom olganligini, davrlar o'tishi bilan bu nomda qanday o'zgarishlar yuz berganligini aniqlashda yuqoridagi fanlar hamkorlikda ish ko'radilar. Korxonalar, firma va do'kon nomlarini o'rganish o'sha hududda yashovchi xalqlarning tili, tarixi, turmushi, urf-odati, kasb-koriga oid qator masalalarni oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek nomshunosligida xususiy korxonalar, firma va do'kon nomlari materiali alohida olingan holda tadqiq qilingan ishlar ham mavjud emas. Xususiy korxonalar, firma va do'kon nomlari haqidagi ba'zi mulohazalar S.Qorayev tomonidan aytilgan. U xususiy korxonalar, firma va do'kon nomlari yuzasidan bir qator rus toponimistlari bildirgan fikrlarga suyangan holda bu masalaga oid o'z qarashlarini bayon qilgan<sup>3</sup>.

Xususiy korxonalar, firma va do'kon nomlariga aloqador ba'zi e'tiborli mulohazalar qardosh turkiy tillardagi xususiy korxonalar, firma va do'kon nomlari yuzasidan bildirilgan tahlillarda uchraydi.

Shuni maxsus ta'kidlash lozimki, Urganch shahridagi ergonimlar orasida arabcha, forsa, ruscha-baynalmilal otlar, ya'ni so'zlar talaygina; o'zbek tilining lug'aviy tarkibida ruscha hamda rus tili orqali kirgan xalqaro so'zlar va boshqalar oz emas. Bunday nomlar o'zbek tilining lug'aviy tarkibidan o'rin olgan so'zlardan o'zbeklar tomonidan qo'yilgan toponimlardir. Har bir tarixiy davr ergonimiyasi boshqa davrlarning ergonimlaridan ma'nosi, grammatik tuzilishiga ko'ra farq qiladi. Chunki har qanday hududda bo'lib o'tgan tarixiy voqea firma nomlari shaklida muhrlanib qoladi. Etimologiya o'z ahamiyati va qiyinligi jihatidan tilshunoslikning boshqa sohalarida birinchi o'rinda turadi. Ba'zan etimologiya semantika termini bilan bir ma'noda ishlatiladi. Respublikamiz olimlarining etimologik mashqlari asosan ergonimlarning semantikasini aniqlab berishdan iborat. Aslida, ergonimik etimologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ma'lumki, atoqli otlarning eng mukammal turi bo'lgan ergonimlar ko'pincha birdan ortiq komponentning semantikasini ochib berishning o'zi oson emas.

O'zbekiston ergonimlari alohida nomlanish va motivlanish tizimining mavjudligi; ham tarixiy; ham bugungi davrga xos bo'lgan xususiyatlarga egaligi, shuningdek, turli ergonimik obyektlarga bo'linganligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarning majmuyi ergonimlarning etimologik tadqiq qilishning bugungacha o'rganilmagan tamoyil va usullariga, bu tadqiqda yondashilgan masalalarga, shuningdek, ularning motivlanish jarayoniga bir butun holda qarash kerakligini ko'rsatib turibdi. Ergonimlar va ularning lug'aviy asoslarini etimologik tahlil hamda tadqiq yo'llari, ya'ni nazariy asoslari sifatida o'rganish zarur. Ergonimlar va ular lug'aviy asoslarining etimologik tadqiq yo'llari sifatida taqdim etilayotgan tamoyil, usul, omil hamda motivlanish masalalari boshqa fanlardagi nazariy asoslardan u yoki bu

darajada farq qiladi. Har bir fan yoki sohaning o'rganish obyekti, predmeti, tushunchaviy bazasi bo'lgani kabi onomastikaning, xususan, ergonimikaning ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bor. Bulardan ko'rinib turibdiki, muayyan fanlardagi tamoyil, usul, omil va motivlanish jihatlarini ikkinchi bir fan (yoki soha)ga tatbiq qilish o'zini oqlamaydi.

Urganch shahri ergonimikasining tasniflanishi quyidagicha ko'rinishga ega: 1) Urganchdagi firma nomlari; 2) do'kon nomlari; 3) turli xususiy korxonalar nomlari va boshqalar. Ular ham, eng avvalo, uchta katta guruhga bo'linadi: 1) o'z qatlam so'zlaridan tashkil topgan ergonimlar; 2) o'zlashgan qatlam so'zlaridan tashkil topgan ergonimlar; 3) o'z va o'zlashgan qatlam so'zlaridan tashkil topgan ergonimlar.

Bir korxonaning nomi "Munis non" ekan. Savol tug'iladi? Non "munis"mi yoki Munisbekning nonimi?

Hammamiz ham biror yumush bilan ko'cha kezamiz. Shunda nigohimiz turli imoratlar tepasiga ilib qo'yilgan yozuvlarga tushishi shubhasiz. Ularni beixtiyor o'qiy boshlaymiz. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yuzlab, minglab joy nomlari tariximiz va milliy qadriyatlarimizga mos ravishda o'zgartirildi, qayta tiklandi. Chunki tarixiy xotirani qayta tiklamasdan turib, millat o'zining kim ekanligi, kim bo'lganligini to'liq anglab yetolmaydi. Milliy ildizlaridan suv ichmagan xalqning yer yuzida o'rni muqim va mustahkam bo'lmasligi tarix isbotlab bergan haqiqatlardan biridir.

Nomlar o'zida ko'p yuk tashuvchi, kerak bo'lsa, avlodlarni tarbiyalaydigan vositalardan biridirki, bu borada mas'uliyatsizlik va loqaydlikka berilish o'zini oqlamaydi. Eng yomoni, zamonaviylik childirmasiga o'yin tushayotganlar bora-bora o'zining kimligini unutib qo'yishi, kimlarningdir qo'lida o'yinchoq bo'lib qolishi, afsuski, bor gap. Shu o'rinda elimizning ulug' farzandi, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning bir asr avval yozib qoldirgan gapini yodga olish lozim: "Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmayturgonlarni qul – marquq derlar". Behbudiy hazratlari millat o'z ildizlaridan judo bo'lmasligi kerakligini qat'iy ta'kidlamogda.

Yurtimizda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesga keng yo'l ochilib, turli-tuman maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar ko'paydi. Bugun ular el xizmatida, odamlarning og'irini yengil qilish bilan mashg'ul. Lekin dilni g'ash qiluvchi ayrim jihatlar ham borki, bularga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Ularning nomi masalasi.

Urganch shahridagi ayrim firma va xizmat ko'rsatuvchi muassasalar nomlariga nazar solsangiz, dilni quvontiruvchi va aks ta'sir etuvchi holatlarga guvoh bo'lasiz. Shahar hududidagi chiroyligina do'kon peshtoqiga "Chopon ota" deb yozib qo'yilgan. Aslida "Cho'pon ota" bo'lishi kerak bo'lgan bu nom, e'tiborsizlik va andak savodsizlik tufayli "chopon"ga aylanib ketgan. Yoki yana bir kafening qoq peshonasiga "Do'mboq jo'ja" degan nom bitib qo'yilganki, odamda andak kulgu, andak istehzo uyg'otadi. Aslida-ku, bu oshxonada jo'jalar pishiriladi. Kim bilsin, qizib turgan yog'ga tushgan jo'jalar xursandligidan "xonish" qila boshlaydimi yoki

semiradimi?. Kafe egalari xayoliga mana shunday ajabtovur va g'alati nom qayerdan kelganini tushunmaysan. Yoki kafelardan birining nomi: "Black cat", ya'ni "Qora mushuk". Tushunarsiz, kerak bo'lsa, mantiqsiz nom. Nimaga endi qora mushuk? Qad kerib turgan ko'rkam kafening nomi esa "Rajab baqqol". Shuncha izlab ko'rsak ham ma'nili izoh topolmadik. Yana bir do'konning nomi undanam qiziq: "Arabika". Quyidagi nomlar ham g'ashingizni keltiradi: "Shashlikxona", "Florense", "Positif", "Smurfland", "Viva Deluxe", "Chaykof", "Na nebe", "Liliya", ...

Hamkorlikda chet el korxonalar va muassasalari bilan asos solinayotgan, faoliyati yo'lga qo'yilayotgan qo'shma korxonalar nomlarini tushunsa bo'lar. Ularning nomi xalqaro talablarga mos, har ikki mamlakat fuqarolari, xaridorlari uchun birday tushunarli bo'lishi shart. Lekin mahallaning ichida qurilgan do'koncha peshtoqiga shapaloqday qilib ajnabiy nom bitib qo'yilishiga nima deysiz.

Shu o'rinda dilni quvnatuvchi ayrim nomlarga ham to'xtalib o'tish joiz. "Xon atlas", "Omad", "Istiqbol", "Ulfatlar", "Navbahor", "Dunyo", "Qutlug' qadam". Hatto, "Tabassum" nomli kafe ham borki, nomni topgan odamga balli deging keladi. Bular milliy va o'zida ma'ni tashuvchi, ko'zni-yu ko'ngilni quvnatuvchi muassasa nomlaridir.

O'tgan asrning saksoninchi yillarida nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da oltmish mingga yaqin so'z keltirilgan bo'lsa, istiqbol yillarida qayta chop qilingan yangi tahrirdagi ushbu lug'atda sakson besh mingdan ziyod so'z o'rin olgan. Bundan tashqari, lug'atga kirmay qolgan, keng iste'molda bo'lgan, ma'no va mazmuni chuqur minglab so'zlarimiz bor. Biror firma yo muassasaga nom tanlayotganda ozgina bosh qotirilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, nazarimizda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Авлакулов Я.И. Ўзбек ономастикаси бирликлари кўламига доир //“Чет тилларни нофилологик олий ўқув юртларида ўқитиш масалалари ва муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман. – Бухоро, 2007. – Б.13-16.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – 710 б.
3. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.
4. Дўсимов З. Топонимлар номинациясида позитивлик ва негативлик тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1985. 2-сон. – Б. 33-37.